



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### MIOKARD INFARKT MOHIYATI, ETIOLOGIYASI, KLINIKASI, KECHISHI, DAVOLASH VA PROFILAKTIKASI

Muallif: Ruziyeva Matluba Tursunovna



Chirchiq tibbiyot kolleji "Maxsus fanlar №2" kafedrasi katta o`qituvchisi.

O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni Saqlash Vazirligi

Oliy Ta`lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligining

Toshkent Viloyati Oliy Ta`lim, Fan va Innovatsiyalar Boshqarmasi

CHIRCHIQ TIBBIYOT KOLLEJI



**Mavzu : Miokard infarkti mohiyati, etiologiyasi, klinikasi, kechishi, davolash va profilaktikasi.**

#### KIRISH

"Ta`lim tog`risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash" milliy dastur talablaridan kelib chiqqan holda, malakali kadrlar tayyorlashda o`quv rejalarini dasturlar mazmuniga moslanib, talabalarni o`quv dasturlari va qo`llanmalar bilan ta`minlash hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Hozirgi vaqtida yurak qon tomir tizimi kasalliklaridan miokard infarktidan o`lim ko`rsatkichi juda katta foizlarni tashkil etmoda. Shuning uchun bu mavzuni



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

chuqurroq organish, o`quvchilarning bilim darajasi samaradorligini oshirish maqsadida usbu maqola tavsiya etiladi.

Ushbu maqolada miokard infarkti kasalligining mohiyati, etiologiyasi, klinikasi, kechishi, davolash va profilaktikasi haqida so`z yuritiladi. Kasalliklarni keltirib chiqaruvchi sabablari, rivojlanish mexanizmi, kasalliklarni zamonaviy diagnostikasi va tekshirish usullari haqida so`z yuritiladi. Kasalliklarni diagnostikasida klinik biokimiyoviy tekshirish usullarining ahamiyati, organizmda sodir bo`layotgan biokimiyoviy jarayonlar haqida so`z yuritiladi. Mavzuga oid rangli tasvirlar keltirilgan.

Ushbu maqola tibbiyot kollejlari o`quvchilari uchun darsga tayyorlanish jarayonida mustaqil o`qib izlanishi uchun va o`quvchilar bilimini mustahkamlashda, amaliy ko`nikmalarni shakllantirishda yordam beradi, deb o`ylaymiz va tavsiya etiladi.



### Miokard infarkti

**Miokard infarkti** –Yurak toj arteriyalaridan birining birdan tiqilib qolishi natijasida ro`y beradigan holatdir. Bunda yurakning muskul qavti nekrozga uchraydi. Miokard infarkti patogeneziga ko`ra stenokardiyaga o`xhash bo`ladi, lekin undan farqi og`riqning uzoq cho`zilishi va miokardda organik o`zgarishlar paydo bo`lishi bilan xarakterlanadi. Stenokardiya bu kasallikning darakchisi hisoblanadi. Bu kasallik bilan ko`proq 40 yoshdan oshgan erkaklar kasallanadi .



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.


Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X


Website: econferenceseries.com

### *Etiologiyasi:*

Bu kasallik yurak toj tomirlari bo‘ylab qon oqishning buzilishi oqibatida yurakning muskul qavatining qon bilan ta’milanishi buziladi. Toj tomirlar bo‘ylab qon oqishning qiyinlashuviga quyidagi omillar sabab bo‘ladi: toj arteriyalarining spazmi, aterosklerotik pilakchalar, katta jismoniy yoki ruhiy zo‘riqishlar, chekish sabab bo‘ladi. Bu kasallikning kelib chiqishida asosan ateroskleroz kasalligi, gipertoniya kasalligi, stenokardiya kasalligi sabab bo‘ladi.



**Yurak toj arteriyalarining aterosklerozi oqibatida miokard infarkti paydo bo`lishi.**



**Qon tomirlar devorida aterosklerotik plakchalarining paydo bo`lishi.**




## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com




### *Klinikasi:*

Kasallik yurak sohasida yoki to'sh orqasida to'satdan qattiq og'riq paydo bo'lib, og'riq chap elkaga, chap kurakka, pastki jag'ga va tananing boshqa qismlariga o'tishi miokard infarktining asosiy simptomlaridan hisoblanadi. Stenokardiyadan farqi og'riq uzoq davom etishi va toj arteriyalarni kengaytiruvchi dori vositalari qabul qilgandan so'ng ham bosilmaydi. Miokard infarktining etakchi simptomlaridan biri bu kuchli og'riqda bemor o'lim vahimasiga tushadi. Rangi oqarib, peshonasini sovuq ter bosadi. Bemorda keskin behollik, yurak urishning tezlashishi, A/Bning pasayib ketishi, pulsni tezlashib va ipsimon bo'lib qolishi kuzatiladi.

Miokard infarktining klinik kechishida quyidagi tiplar farqlanadi:

- Tipik yoki klassik-bu og'riqli turi.
- Atipik.
  - A)gastralgik tipi;
  - B) astmatik tipi;
  - V) yurakning notejis urishi;
  - G) miya turi;
  - D) belgilari kam xili;
- Miokard infarktining gastralgik tipida qorinning yuqori qismida qattiq og'riq, ko'ngil aynish, quшив, kekirish, hiqichoq tutishi, qorin dam bo'lishi va ich ketishi bilan kechadi.



Auskultatsiyada yurak tonlari bo‘g‘iqlashgan.

## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- Astmatik tipida kasallik bo‘g‘ilish, hansirash bilan boshlanadi. YUrak astmasi va o‘pka shishi rivojlanadi.
- Aritmik turida yurak notekis urishi bilan boshlanadi. Titroq aritmiya, qorinchalar ekstrasistoliyasi, turli darajadagi blokadalar va paroksizmal taxikardiya kuzatiladi.
- Miya turida miyada qon aylanishning buzilishi bilan kechadi. Bemorning psixikasi o‘zgaradi, boshi aylanadi va hushidan ketishi mumkin.
- Belgisiz xilida bemorlar miokard infarktini boshidan o‘tkazganliklarini bilmaydilar. Kasallikni oyoqda o‘tkazib yuboradilar. Boshqa bir sabab bilan EKGda tushganda miokardda chandiq borligi aniqlanadi.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Miokard infarktining yana bir belgisi bu tana haroratining ko'tarilishidir. Harorat qonga nekroz o'chog'idan parchalanish mahsulotlarining tushishi sababli paydo bo'ladi. Tana harorati yuqori raqamlarga chiqishi ham mumkin, biroq subfebreli bo'ladi.

Qonni laborator tekshirilganda leykotsitoz, ECHT oshgan, fermentlar miqdorining oshishi kuzatiladi.

EKG da miokardda nekroz bo'lganda patologik Q tishcha paydo bo'ladi, T-tishcha manfiy bo'lib qoladi.

### **Asoratlari:**

Kardiogen shok, yurak astmasi, o'pka shishi, chap qorinchaning o'tkir yetishmovchiligi, yurak anevrizmasi, yurak devorining teshilishi mumkin.

### **Davosi:**

Miokard infarkti ko'chada, ish joyida yuz bersa zudlik bilan tez va shoshilinch tibbiy yordam mashinasi chaqiriladi. Bemor zudlik bilan statsionarga yotqiziladi. Miokard infarkti uyda ro'y bersa ham bemor zudlik bilan kasalxonaga yotqiziladi.

Birinchi navbatda bemorga og'riq qoldiruvchi moddalar yuboriladi. Teri ostiga 1%-1ml mofin yoki promedol, atropin yoki platifillin bilan birga yuboriladi.

Agar og'riq to'xtamasa 60-80 min o'tqazib pantapon yoki morfin eritmasi takroran yuboriladi.

Og'riq uzoq davom etsa yurak sohasiga 5-6 ta zuluk qo'yiladi.

Yurak sohasidagi kuchli og'riqni bartaraf etish uchun maxsus apparat yordamida narkoz beriladi.

Tromblarni eritish maqsadida fibrinolizin yoki heparin buyuriladi.

1-chi kun heparin 1000-5000 TB da vena ichiga yuboriladi. Keyin qorinning pastki qismiga, teri ostiga 10000 TB dan 1 kunda 2 marta yuboriladi yoki har kuni 5000 TB dan 7 kun davomida 4 mahal teri ostiga yuboriladi.

Heparin yuborilayotgan vaqtda qonning ivish vaqtini, qondagi eritrotsitlar, hemoglobin nazorat qilib turiladi.

Miokard infarktining o'rtacha o'tkir davrida qat'i yotoq rejimi, ratsional ovqatlanish, osh tuzi va suyuqlikni cheklash, ruhiy osoyishtalik yaratish lozim.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### Parvarish qilish:

Bemor holatini diqqat bilan kuzatish. Miokard infarkti bilan og‘rigan bemorlarni parvarish qilishda yotoq yaralarni oldini olish muhimdir.

Bemorni o‘rindagi vaziyatini o‘zgartirishda o‘rin – ko‘rpa, kiyimlarini almashtirishda juda ehtiyyot bo‘lish lozim.

Bemorni keskin harakatlar qilishga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Bemorga o‘rindan turish ruxsat berilganda ham gorizontal holatdan vertikal holatga asta – sekinlik bilan o‘tiladi. Bemorga davolovchi gimnastika barvaqt buyuriladi.

Bemorning sog‘ayib ketishida unga sog‘ayib ketishiga umid o‘yg‘otishda tibbiyot hamshirasining roli kattadir.

Bemorlarning sog‘ligini qayta tiklashda ochiq havoda belgilangan vaqtida sayr qilish, fizioterapevtik muolajalar, sanatoriya – kurortlarda davolanish juda muhimdir.

Bemorlar kasalxonadan chiqqandan so‘ng yashab turgan joylaridagi poliklinikalarda dispanser ro‘yxatida turadilar va shifokor nazorati ostida bo‘ladilar.

### Foydalaniladigan adabiyotlar:

**Asosiy adabiyotlar:** 1 .G’. O. Haydarov "Ichki kasalliklar".

2.M.F. Ziyayeva "Terapiya" .

**Qo’shimcha adabiyotlar:** 3. Y.L.Arslonov "Ichki kasalliklar".

Internet saytlari:

1.WWW. Ziyonet. uz

2. WWW.tibbiyot.uz.